

ARASTUNING “SIYOSAT” ASARI TAHLILI

Qodiraliyeva Azizaxon Azimjon qizi

*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti
Ijtimoiy-gumanitar fanlar fakulteti sotsiologiya yo'nalishi talabasi
qodiraliyevaaziza8@gmail.com*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Arastu o'zining “Siyosat” asarining mazmuni va mohiyati haqida gap boradi. Asarda davlat bo'g'ini sifatidagi oila, qullik, fuqarolik, davlat belgilari, shuningdek, uni boshqarish shakllari va maqsadlarini muhokama qilinadi. Tadqiqotchilaning fikricha, Arastu “Siyosat” asarini yozishdan bosh maqsad-ideal Polisning nazariy asoslarini ishlab chiqishdir. Undan tashqari Arastu davlatni umumiy farovonlikni ko'zlab tashkil qilingan jamoa deb ataydi. Bu bilan davlat insonlarning kundalik ehtiyojlarini qondirish maqsadida tabiiy yo'l bilan paydo bo'lgan oilaga qarshi qo'yiladi. Qishloqlarga birlashtirilgan oilalar davlatning ajralmas qismini tashkil qiladi. Aristotel oila deganda o'z qullariga ega bo'lgan patrilarxal oilani nazarda tutadi va unda oila boshlig'i monarxga qiyoslanadi. Keyinroq yuzaga kelgan ijtimoiy shartnoma nazariyalaridan farqli o'laroq, Aristotel davlatni tabiiy birikma, insonni esa siyosiy hayvon deb ataydi*

Kalit so'zlar: *siyosat, davlat shakllari, fuqarolik, boshqaruv, aristokratiya, oligarxiya, demokratiya, mansabdor organ.*

KIRISH

Arastu (Aristotel) miloddan avvalgi 384-yilda Yunonistondagi Stagira shahrida tug'ilgan bo'lib, otasi Nikomax Makedoniya podshosi Amynta III saroyida shifokor sifatida xizmat qilgan. Shu sababli Arastu bolaligidan ilmiy, ayniqsa tibbiyot va tabiatshunoslik muhitida ulg'aygan. [1] U 17 yoshida Afinaga borib, Platon asos solgan Akademiyada o'qishni boshladi va taxminan 20 yil davomida shu yerda ta'lim oldi. Akademiyada u dialektika, metafizika va Platonizmning asosiy qoidalarini o'rgandi, biroq vaqt o'tishi bilan idealistik falsafadan ko'ra tajribaga asoslangan ilmiy bilishga ko'proq e'tibor qaratdi. [2]

Platon vafotidan keyin Arastu Akademiyani tark etgan va bir muddat Kichik Osiyo hamda Lesbos orollarida ilmiy tadqiqotlar bilan shug'ullangan. Bu davr uning biologiyaga oid kuzatuvlari eng sarmahsul bo'lgan yillardan biridir. U o'simliklar, hayvonlar tuzilishi, ularning harakati va funksiyalari haqida ko'plab aniq tavsiflar qoldirgan. [3] Miloddan avvalgi 343-yilda Makedoniya podshosi Filipp II Arastuni o'g'li — yosh Aleksandr (keyinchalik Iskandar Zulqarnayn)ga murabbiy qilib taklif qilgan. Arastu Aleksandrga falsafa, axloq, tarix, siyosat, tibbiyot va adabiyotdan saboq bergan. Keyinchalik Aleksandrning keng dunyoqarashi va davlat boshqaruvidagi yondashuvlarida Arastu ta'siri sezilishi tarixchilar tomonidan ta'kidlanadi. [4]

Aleksandr taxtga chiqqach, Arastu Afinaga qaytadi va o'z maktabi — Lykey (Lyceum)ni ochadi.

Bu muassasa G'arb ilmiy maktablarining ilk shakllaridan biri bo'lib, talabalarga mantiqiy fikrlash, kuzatuv asosidagi ilmiy tadqiqotlar va klassik fanlar o'rgatilgan. Arastu o'z maktabida matematika, meteorologiya, poetika, axloq, fizika, astronomiya, tilshunoslik, siyosatshunoslik kabi ko'plab sohalarni rivojlantirgan. [5]

Arastu mantiq faniga juda katta hissa qo'shgan. Uning "Organon" nomi bilan yig'ilgan asarlari 2000 yildan ortiq vaqt davomida mantiqning asosiy qo'llanmasi bo'lib kelgan. U sillogizm, deduksiya, sababiyat, tushunchalar tuzilishi kabi atamalarni ilmiy asoslagan. [6] Arastuning eng mashhur axloqiy asarlaridan biri — "Nikomax axloqi" bo'lib, unda u insonning baxtga erishishi, fazilatli hayot, o'rta yo'l qoidasi, ehtirosalar boshqaruvi va axloqiy takomillashuv haqida chuqur tahlillar beradi. Asar g'arb axloqiy falsafasining asosiy manbalaridan biri hisoblanadi. [7] Arastuning siyosat haqidagi qarashlari esa uning "Siyosat" (Politics) asarida aks etgan.

Bu asar davlatning tabiati, boshqaruv shakllari, konstitutsiya, adolat, fuqarolik vazifalari, tarbiya va qonun ustuvorligi haqida eng qadimgi ilmiy tahlillardan biridir. Arastu davlatni tabiiy birlik deb biladi va inson "ijtimoiy mavjudot" ekanini ta'kidlaydi.

U monarxiya, aristokratiya va politeyani yaxshi boshqaruv shakllari, tiraniya, oligarchiya va demagogiyani esa buzilgan shakllar deb baholaydi. Shuningdek, u "o'rta tabaqa kuchli bo'lgan joyda davlat barqaror bo'ladi" degan mashhur g'oyani ilgari surgan. [8] Arastu umrining oxirida siyosiy bosim tufayli Afinani tark etishga majbur bo'lgan. Chunki Iskandar vafotidan keyin yunonlar orasida Makedonlarga qarshi kayfiyat kuchaygan edi.

Arastu "Afinoliklar yana falsafaga qarshi jinoyat qilmasinlar" deb, o'zini Sokrat kabi nohaq hukmga duchor qilmaslik uchun Xalkida shahriga ko'chib o'tgan. U miloddan avvalgi 322-yilda shu yerda vafot etadi. [9]

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. "Politika", yoki "Siyosat" (yunoncha Πολιτικά) - Qadimgi Yunoniston faylasufi Aristotelning davlat to'g'risidagi asari bo'lib, unda ijtimoiy va siyosiy falsafa fanlarining asoslari yaratilgan. Risola Aristotelning Makedoniyada qo'l ostidagi Afinada yashagan eng so'nggi yillarida (miloddan avvalgi 335-322-yillar) yozilgan. [10] Kitobda davlat bo'g'ini sifatidagi oila, qullik, fuqarolik, davlat belgilari, shuningdek, uni boshlarish shakllari va maqsadlari muhokama qilinadi.

"Siyosat" asari 8 ta kitobdan iborat bo'lib, birinchi kitobda Aristotel urushlarni mulkka, avvalo qullarga ega bo'lish vositasi deb hisoblaydi, qullar esa varvarlardan - "tabiatan bo'ysunishga mahkum bo'lgan, lekin buni xohlamaydigan" insonlardan yollanadi. Oila xo'jaligi o'z ichiga uch fan: o'zlashtirish, tasarruf etish va boshqarishni oladi.

Ikkinchi kitobda Aristotel Platonning Ideal shahar nazariyasini tanqid qiladi va oila hamda davlatda xususiy mulkning saqlanib qolishini zaruriyatini ilgari suradi. Uning asosiy dalili quyidagida o'z ifodasini topadi: "Egalari ko'p bo'lgan narsa eng kam

g'amxo'rlikka sazovor bo'ladi". Aristotel fikricha, hokimiyat "og'ir qurollarga ega bo'lganlarga" tegishli bo'lishi kerak.

Uchinchi kitobda esa Aristotel fuqarolik masalasini ko'rib chiqadi. Fuqaro - bu davlat ishtirokchisi, ya'ni qasamyod qilgan sud vakillari va xalq kengashi ishtirokchisidir. Aristotel qullarga, meteklarga (ajnabiylarga), hunarmandlarga, Yettinchi kitobda esa - dehqonlarga ham fuqarolik berilishini inkor qiladi. Boshqaruvda ishtirok etuvchi fuqarolar soni bo'yicha u uch turdagi "to'g'ri" (ya'ni umumiy farovonlikka erishish uchun qaratilgan) boshqaruv ko'rinishlarini farqlaydi:

To'rtinchi kitobda Aristotel davlatni tashkil qiluvchi 5 elementlarni sanab o'tadi:

- Xalq- iste'mol uchun mahsulotlar yetishtiruvchi dehqonlar;
- Hunarmandlar - mehnat qurollarini ishlab chiqarishadi;
- Savdogarlar - tovarlar almashinuvi va taqsimoti bilan shug'ullanishadi;
- Amaldorlar - davlatni oqilona boshqarish bilan shug'ullanishadi;
- Harbiylar - davlatni himoya qilishadi.

Beshinchi kitobda davlatdagi nizolarning sabablarini ko'rib chiqadi. Beqarorlikning sabablari sifatida u davlatdagi "aholining xilma-xilligi", hukmron qatlam vakillari orasidagi ichki nizolar, shuningdek demagoglar faoliyatini, ya'ni bir kishining demagogiya bilan barcha hokimiyatni o'z qo'liga olib, tiran ya'ni zolim hukmdorga aylanishini keltiradi.

Oltinchi kitobda xuddi ikkinchi kitobdagidek, demokratiya va oligarxiya orasidagi farqlarni tahlil qiladi.

Yettinchi kitobdayunoncha vatanparvarlik namoyish qiladi va faqat yunonlardagina jasorat va zakovat o'zaro uyg'unlikda namoyon bo'ladi, deb yozadi. Uning fikricha, Yevropaliklarda jasorat mavjud, lekin zakovat yetishmaydi, Osiyoliklarda esa zakovat mavjud, lekin jasorat yetishmaydi.

Aristotel baxtni eng oliy ezgulik, deb ataydi. Davlatning vazifasi quyidagilardir deb hisoblaydi: ozuqa bilan ta'minlash, qulaylik yaratish, himoya, ta'minot, diniy an'analar va adolat.

Sakkizinchi kitobda "yoshlar tarbiyasi" masalasini ko'taradi va "bu mavjud bo'lmagan joyda davlatning asoslariga putur yetadi" deb hisoblaydi. Uning fikricha, to'rtta asosiy o'quv fanlari mavjud: grammatika, gimnastika, musiqa, musavvirlik san'ati. [11]

Muhokama. Arastuning siyosiy falsafaga yondashuvi: Arastu siyosatni amaliy falsafa tarmoqlaridan biri sifatida ko'radi. Unga ko'ra, siyosatning maqsadi — jamiyatni adolatli tartibda boshqarish va fuqarolarning farovonligini ta'minlashdir. Inson tabiatan "ijtimoiy mavjudot" ("zoon politikon") bo'lgani uchun davlatning paydo bo'lishi tabiiy jarayon hisoblanadi. Arastu davlatning kelib chiqishini bosqichma-bosqich shakllanadigan tuzilma sifatida talqin qiladi. Unga ko'ra:

- Oila-birlik;
- Qishloq-bir nechta oilalarning birlashuvi;
- Davlat-eng mukammal siyosiy tuzilma.

Arastuning fikricha, davlatning maqsadi-axloqiy jihatdan barkamol jamiyat yaratish. [12] Fuqarolik tushunchasi. Arastu fuqaroni “davlat boshqaruviga qatnashsish huquqiga ega bo’lgan shaxs sifatida belgilaydi. Fuqarolik faqat yashash joyiga emas, balki siyosiy jarayonda faol ishtirok etish qobiliyatiga bog’liq, deya ta’riflaydi.

Arastu boshqaruvining uchta shaklini ko’rsatadi:

Monarxiya - bir kishining adolatli boshqaruvi;

Aristokratiya - eng yaxshi kishilarning boshqaruvi;

Polietiya - xalqning adolatli boshqaruvi.

Arastuning eng maqbul deb bilgan modeli - polietiya, ya’ni o’rta qatlamga tayanadigan boshqaruv tizimidir.

Arastu davlatning barqarorligi jamiyatning tarbiyasi bilan bog’liq, deya ta’kidlaydi. U davlat ta’limni boshqarishi va fuqarolarni axloqiy yetuklik ruhida tarbiyalashi kerak deb hisoblaydi. Oila va iqtisodiy munosabatlar. “Siyosat” da oila jamiyatning asosiy birligi sifatida tahlil qilinadi. Arastu xo’jalik yuritish, mulk masalasi, quldorlikning antik shakllarini izohlaydi. Ushbu qarashlar o’z davrining tarixiy sharoitiga mos bo’lib, bugungi siyosiy tizimlarga to’g’ridan-to’g’ri tatbiq etilmaydi, ammo siyosiy fikr tarixi uchun muhim.

Natijalar. Tahlil natijalari shuni ko’rsatadiki: Arastu davlatning barqarorligini faqat siyosiy tizim emas, balki iqtisodiy, axloqiy, tarbiyaviy va madaniy omillar birligi orqali ta’minlanishini isbotlab beradi. Uning fikricha, tartibli iqtisodiy hayot, adolatli mulk taqsimoti va o’rta qatlamning mustahkamligi siyosiy muvozanatning asosiy ustunidir. “Siyosat” asari antik jamiyatning ijtimoiy tuzilishini ilmiy tahlil qilgan ilk fundamental manbalardan biri sifatida demokratik nazariyaning shakllanishiga bevosita ta’sir ko’rsatgan.

Ayniqsa, konstitutsiya, fuqarolik va qonun ustuvorligi haqidagi g’oyalari keyingi asrlar siyosiy tafakkuriga asos bo’lib xizmat qilgan. Arastuning siyosiy tizimlarni “to’g’ri” va “buzilgan” shakllarga ajratishi zamonaviy siyosiy rejimlar tasnifi (avtoritar, totalitar, demokratik) evolyutsiyasida muhim metodologik asos vazifasini o’taydi.

Uning jamiyat barqarorligida ta’limning roli haqidagi qarashlari hozirgi demokratik jamiyatlardagi majburiy ta’lim, davlat tomonidan boshqariladigan tarbiya siyosati va fuqarolik ta’limi kabi tushunchalarning falsafiy negiziga asos solgan. Arastuning “o’rta tabaqa hukmronligi — eng barqaror tuzum” degan qarashi bugungi ko’plab iqtisodchilar, siyosatshunoslar va demokratik institutlar tomonidan tasdiqlangan nazariy tamoyilga aylangan.

Xulosa. Xulosa o’rnida shuni aytish lozimki, Arastuning siyosiy qarashlari davlatni axloqiy maqsadlarga yo’naltirilgan murakkab tizim sifatida talqin qilishga imkon beradi. Unga ko’ra, davlatning bosh vazifasi — fuqarolarni barkamol hayotga yetaklash va umumiy farovonlikni ta’minlashdir. Bu holat Arastu siyosiy falsafasining asosiy o’zagini tashkil etadi.

Arastuning qarashlari zamonaviy siyosiy tizimlar, demokratik institutlar, fuqarolik jamiyati, konstitutsiyaviy boshqaruv va adolat tamoyillarining shakllanishida

muhim manba bo'lib qolmoqda. Uning ko'plab fikrlari bugungi kun jamiyatlarida ham amaliy ahamiyatini yo'qotmagan. Arastuning mulk, oila, quldorlik va iqtisodiy boshqaruv haqidagi qarashlari tarixiy sharoitga xos bo'lsa-da, ularning asosiy mantiqi — jamiyatni boshqarishda tartib, me'yor va maqsadga yo'naltirilganlik zarurligi — hozirgi davlatlar uchun ham universal ahamiyatga ega. Uning "Siyosat" asari nafaqat antik davr siyosiy strukturasini tasvirlaydi, balki har qanday jamiyat taraqqiyotida ijtimoiy qatlamlar muvozanati, ta'lim, adolat va qonun ustuvorligining o'rni borligini ko'rsatadi. O'zbekiston misolida ham Aristoteldagi barqaror o'rta qatlam, samarali boshqaruv, fuqarolarning faolligi, ta'lim-tarbiya tizimining kuchaytirilishi kabi tamoyillar dolzarbligini yo'qotmayapti. Bu uning qarashlarining universalligini tasdiqlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Encyclopaedia Britannica, "Aristotele"
2. Will Durant, The Story of Philosophy, 2002
3. Aristotele's biological works, Cambridge University Press
4. Standford Encyclopedia of Philosophy, "Aristotele"
5. W. Jaeger, Aristotele: Fundamentals of The History of His Development
6. Aristotele, Organon, Oxford Classical Texts
7. Aristotele, Nicomachean Ethics, Cambridge University Press, 2014
8. Internet Encyclopedia of Philosophy, "Aristotele"
9. Aristotel. Siyosat // To'rt jildlik asarlar to'plami. Moskva, "Mysl", 2004. 4-jild. S. A. Jebelev tarjimasi.
10. Blits 199, ss. 58-63-betlar
11. Аристотель. Политика // Сочинения в 4-х томах. М., Мысль, 2007. Т. 4. Перевод С. А. Жебелева